Nematullayeva Madina Zafarovna	
Umumta'lim maktablarida chizmachilik fanini o'qitishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish istiqbollari	598
Xalimov Moxir Karimovich	
Biologiya fanini o'qitishni modernizatsiyalash bo'yicha zamonaviy yondashuvlar.....	603
Axmadjanova Mohiyat Sadriyevna	
Dizariya shakllarining klinik-pedagogik tavsifi	607
Iminjonova Moxichexra Alimardon qizi	
Oliy ta'limda kechki ta'lim talabalarining o'quv faolligini oshirishda faollashtiruvchi interaktiv ma'ruza metodining didaktik strukturasi va pedagogik imkoniyatlari.....	611
Axmedova Zilola Muxtor qizi	
Оптимизация процесса самообразования студентов русской филологии в условиях современного образовательного пространства	617
Азизова Д. А.	
Bo'lajak tarixchilarda tarix falsafasining zamonaviy konsepsiyalariga doir bilimlarni rivojlantirishning amaliy texnologik tizimi.....	622
Anvarjonov Ahrorjon Ahadjon o'g'li	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mehnatsevarlikka tarbiyalashda pedagogik texnologiyalarning turlari va ularni qo'llash imkoniyatlari.....	625
Xudaybergenova Adolat Usmanovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni ijtimoiy-axloqiy tarbiyalashda maktabgacha ta'lim tashkiloti va oilaning hamkorligi.....	629
Jumanova Fotima Uralovna, Azimova Zebxon Tohirovna	
4K yondashuvi asosida dars topshiriqlarini ishlab chiqish.....	635
Boboyeva Nafosat Tulqin qizi	
O'quv-tarbiya jarayonida pedagogik diagnostika.....	639
Xolmatova Ziroatxon Anvarovna	
Raqamli ta'lim muhitida tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishning ahamiyati.....	642
Abdullayeva Ozoda Odiljon qizi	
O'yinchilarning texnik va taktik tayyorgarligi.....	645
Madaminov Oribdjan Nishanbayevich	



Ta'lim jarayonida gamifikatsiya va didaktik o'yinlar orqali metakognitiv kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi.....	648
<i>Xayrullina Parizod Farg'at qizi</i>	
Dual ta'lim sharoitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetentligini baholash mezonlari va monitoring tizimi.....	651
<i>Umurov Zarif Latifboyevich</i>	
Boshlang'ich sinflarda folklor asarlarini aksiologik yondashuv asosida o'qitish metodikasi	660
<i>Aytmuratova Elvira Ersultanovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilari tanqidiy fikrlashining psixologik va pedagogik mohiyati.....	663
<i>Haydarova Kamola Ergashboy qizi</i>	
Differensial ta'limning nazariy-konseptual asoslari.....	667
<i>Rasulova Nozigul Abdivoxid qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tasviriy faoliyatga o'rgatishda kreativ shaxsni shakllantirish bo'yicha metodik tavsiyalar	671
<i>Rizoyeva Muslima Raxmonovna</i>	
Информационная компетентность через призму филологии: ключевые факторы формирования ...	679
<i>Хикматов Нодир Назимджанович</i>	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida qadriyatlar tizimini shakllantirishning samarali yo'llari	683
<i>Mamatova Zarena Abduljalilovna</i>	
O'zbekiston va Angliyada pedagogik ta'lim tizimining tarixiy asoslari.....	686
<i>Miramatova Laylo Ravshanjon qizi</i>	
Innovatsion ta'lim muhitida o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	690
<i>Nilufar Xalikova Mirkadirovna</i>	
Badmintonchilarda maxsus chaqqonlik tayyorgarligining o'yin faoliyatiga ta'siri	694
<i>Samadova Uktabar Hasanovna</i>	
<i>Maktab direktorlarining boshqaruv ko'nikmalarini rivojlantirishda sinergetik</i>	
yondashuvning o'рни va ahamiyati	698
<i>Yusupova Dilnoza Fayzullayevna</i>	
Pedagogical Essence of Improving Students' Collaborative Skills Through Multi-Vector Approaches	702
<i>Turemuratova Aziza Begibaevna, Otelbayeva Muhayyo Alisher qizi</i>	
Tasviriy san'at mashg'ulotlarining maktabgacha yoshdagi bolalarda kognitiv, estetik va ijodiy rivojlanishiga ta'siri	708
<i>Shaymuradov Taxir Zamanovich</i>	
Oliy ta'limda ma'naviy-ma'rifiy kompetensiyalarni baholash mezonlari: falsafa fanining o'quv jarayoniga integratsiyasi	713
<i>Abdullayev Akmal Nasriddinovich</i>	
Klasterli ta'lim muhitida bo'lajak o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchilarining innovatsion kompetentligini rivojlantirish metodlari.....	717
<i>Abdurahmonov Maqsad Bekjonovich</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqiy rivojlanishning yetakchi omillari.....	720
<i>Abduvosiyeva Mahmuda Xamidullo qizi</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ sifatlarini oshirish: zamonaviy yechimlar va muammolar	724
<i>Abduxalimova Yulduz Normurod qizi</i>	
Maktablarda sun'iy intellekt asosida xorijiy tillarni o'qitish afzalliklari	728
<i>Altimisheva Iroda Mavlonovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda boshqaruv madaniyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari.....	731
<i>Ashurov Yusuf Alisher o'g'li</i>	
Bolalikni qayta anglash: mariya montessori pedagogik qarashlarining ilmiy asoslari	735
<i>Ismatullayeva Madinabonu Akmaljon qizi</i>	
14-15 yoshli o'quvchilarning jismoniy tarbiya vositalari orqali jismoniy tayyorgarligi samaradorligini oshirish metodi	740
<i>Karimboyev Og'abek Qadamboyevich</i>	

O'zbekiston xalqlarining amaliy san'ati va ma'naviy merosini o'rganish: tarixiy va pedagogik jihatlar	744
Kayumov Erkin Kazakbayevich	
Fizika ta'limida kognitiv texnologiyalar asosida talabalarning mantiqiy va analitik tafakkurini rivojlantirish yo'llari	748
Madumarov Shodonbek Az'amjonovich	
Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish jarayonlarida pedagogik-psixologik bilimlarning ahamiyati	751
Muratova Shaxnoza Ibatovna	
Yoshlar o'rtasida ijtimoiy hamkorlikni mustahkamlashda pedagogik resurslar va hamkorlik infratuzilmasining ahamiyati	754
Matnazarov O'ktam Latipovich	
Maxsus pedagogika o'qituvchilarining pedagogik va psixologik tayyorgarlik darajasi	757
Oxunov Ilxomjon Abdunabiyeich	
Funksional bog'liqlikni tushunishda vizual-eksperimental metodning samaradorligi	760
Qobilova Nargiza Anvarovna, Shamuratov Zafar Ergashevich	
The Psychological Importance of Emotional Intelligence and Stress Resilience in Increasing Professional Efficiency of Primary School Pedagogues	766
Tajiboyeva Odinakhon	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida mashg'ulotlar jarayoni sifatini monitoring qilish vositasi sifatida	769
Tashbayev Naim Sadikovich	
Axloqiy tafakkur va axloqiy qaror qabul qilish kompetensiyasi tushunchasining pedagogik-psixologik mohiyati	773
Temirova Oydina Muhiddinova	
Oliy ta'lim muassasalarida "Muhandislik kompyuter grafikasi" fanini o'qitishning metodik asoslari va zamonaviy yondashuvlari	776
Xamidov Dilshod Olimjon o'g'li	
Kasbiy ta'lim rahbarlarining individual yondashuv asosida kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlari ...	780
Yangiboyev Kamol Norboyevich	
Тема экологических проблем как элемент духовно-нравственного воспитания студентов в произведениях Чингиза Айтматова	784
Абдулвохидов Элёр	
Девиантное поведение школьников в образовательной среде: проблемы классификации и гендерные особенности восприятия педагогами	789
Алимжанова Матлюба Юнусовна	
Анализ проблем развития профессиональной иноязычной компетенции по английскому языку у студентов медицинских вузов	793
Исраилова Илона Халитовна	
Психолого-педагогические условия использования изобразительной деятельности как средства стимуляции коммуникативных навыков у воспитанников с синдромом дауна	798
Каримова Регина Шовкатовна	
Методика развития специальной физической подготовленности футболистов 11–12 лет с использованием современного инновационного оборудования	802
Мирзабаев Диёрбек Камилович	
Нейроигра как эффективное средство развития познавательных и регуляторных функций у детей дошкольного возраста	805
Намазбаева Лола Закировна, Маткаримова Шарира Рахимжановна	
Методы и приёмы технологии развития критического мышления в курсе "Общая педагогика": опыт проектирования учебного процесса в вузе	809
Янкина Рано Садыковна	

MAKTAB DIREKTORLARINING BOSHQARUV KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA SINERGETIK YONDASHUVNING O'RNI VA AHAMIYATI

Yusupova Dilnoza Fayzullayevna

A. Avloniy nomidagi Pedagogik mahorat milliy instituti dotsenti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktab direktorlarining samarali boshqaruv ko'nikmalarini shakllantirishda sinergetik yondashuvning nazariy-metodologik asoslari, uning boshqaruv jarayoniga ta'siri hamda ta'lim tizimidagi amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Sinergetika nazariyasi maktabni murakkab va o'zaro bog'langan tizim sifatida talqin qilib, boshqaruv jarayonida sinergiya hamda tizimkor fikrlashni rivojlantirishning samarali mexanizmlarini asoslaydi. Shuningdek, mazkur yondashuv ta'lim muassasasida strategik boshqaruv, jamoaviy hamkorlik va innovatsion rivojlanishni ta'minlashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qilishi yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: sinergetik yondashuv, boshqaruv ko'nikmalari, maktab direktori, ta'lim menejmenti, tizimkor yondashuv, sinergiya.

Abstract: This article analyzes the theoretical and methodological foundations of the synergetic approach to developing effective management skills among school principals, its impact on the management process, and its practical significance in the education system. The theory of synergetics considers a school as a complex and interconnected system and substantiates effective mechanisms for strengthening synergy and systems thinking in management activities. The study also highlights the role of this approach in ensuring strategic management, collaborative interaction, and innovative development in educational institutions.

Key words: synergetic approach, management skills, school principal, educational management, systems approach, synergy.

Аннотация: В данной статье анализируются теоретико-методологические основы синергетического подхода к формированию эффективных управленческих навыков директоров школ, его влияние на процесс управления, а также практическая значимость в системе образования. Теория синергетики рассматривает школу как сложную и взаимосвязанную систему и обосновывает эффективные механизмы укрепления синергии и системного мышления в управленческой деятельности. Кроме того, показано, что данный подход способствует развитию стратегического управления, командного взаимодействия и инновационного развития образовательных организаций.

Ключевые слова: синергетический подход, управленческие навыки, директор школы, менеджмент в образовании, системный подход, синергия.

KIRISH

Maktab direktorlarining boshqaruv ko'nikmalari quyidagilardan iborat: strategik boshqaruv, tashkiliy va ma'muriy boshqaruv, liderlik, kommunikativ ko'nikmalar, pedagogik boshqaruv ko'nikmalari, tahliliy va diagnostik ko'nikmalar, innovatsion va rivojlantiruvchi ko'nikmalar, psixologik hamda emotsional ko'nikmalar.

Global ta'lim sohasida tezkor o'zgarishlar, pedagogik innovatsiyalar va murakkab ijtimoiy sharoitlar maktab rahbarlaridan yuqori darajadagi boshqaruv ko'nikmalarini talab qiladi. An'anaviy boshqaruv yondashuvlari ko'pincha murakkab tizimli muammolarni yechishda yetarli natija bermaydi. Shu sababli ta'lim menejmenti sohasida sinergetik yondashuv zamonaviy boshqaruv amaliyotining nazariy va amaliy asoslaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sinergetika – murakkab tizimlarda o'zini tashkil etish, o'zaro bog'liqlik va tizimli o'zgarishlarni o'rganadigan ilmiy yo'nalishdir. Nazariy asoslaridan biri – tizim elementlarining o'zaro ta'siri natijasida yangi sifatlar, ya'ni sinergiya vujudga kelishidir. Mazkur yondashuv ilk bor tabiiy fanlar doirasida shakllangan bo'lsa-da, keyinchalik ijtimoiy tizimlar, jumladan, ta'lim tizimini tahlil qilishda ham keng qo'llanila boshladi. Haken sinergetikani



murakkab tizimlarning o'zini-o'zi tashkil etish qonuniyatlarini o'rganuvchi ilmiy yo'nalish sifatida izohlab, unda tizim elementlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir yangi sifat darajasini yuzaga keltirishini ta'kidlaydi (Haken, 1983).

Ta'lim muassasalari ham murakkab, dinamik tizimlar bo'lib, unda o'qituvchilar, o'quvchilar, ota-onalar hamda tashqi muhit omillari o'zaro uzviy bog'liq holda faoliyat yuritadi. Shu sababli ta'limni boshqarishda tizimli va sinergetik yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Senge ta'lim tashkilotlarini "o'rganayotgan tashkilot" sifatida talqin qilib, tizimli fikrlashni samarali boshqaruvning muhim komponenti sifatida ko'rsatadi (Senge, 1990). Shuningdek, Fullan ta'lim tizimidagi o'zgarishlar samarali boshqaruv va jamoaviy hamkorlik orqali amalga oshirilishini ta'kidlaydi (Fullan, 2016).

Zamonaviy tadqiqotlarda sinergetik yondashuv ta'lim tizimida yangi pedagogik paradigma sifatida qaralmoqda. Karadzhova ta'lim jarayonida sinergetik yondashuvni qo'llash orqali o'qituvchilar, rahbarlar va o'quvchilar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish hamda tizimning moslashuvchanligini oshirish mumkinligini qayd etadi (Karadzhova, 2024). Issabekova, Turgunbayeva va Katenov tadqiqotlarida maktablarda metodik faoliyatni tashkil etishda sinergetik platforma samaradorligi asoslab berilgan (Issabekova va boshq., 2024). Panina va hamkorlari esa bo'lajak ta'lim menejerlarini tayyorlash jarayonida sinergetik yondashuv o'quv jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qilishini ta'kidlaydilar (Panina va boshq., 2017). Shuningdek, Shuldeshova ko'p tilli ta'lim muhitida sinergetik yondashuv o'quv jarayonining integratsiyalashuvi va tizimli rivojlanishini ta'minlashini qayd etadi (Shuldeshova, 2023).

Yuqoridagi ilmiy qarashlar shuni ko'rsatadiki, sinergetik yondashuv ta'lim tizimini murakkab va o'zaro bog'liq tizim sifatida tahlil qilish imkonini beradi. Mazkur yondashuv maktab direktorlarini tizimkor fikrlashga, resurslarni uyg'unlashtirishga va jamoaviy sinergiyani shakllantirishga yo'naltiradi hamda ta'lim muassasalarida samarali boshqaruvni tashkil etishning muhim nazariy asoslaridan biri hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqola adabiyotlar tahlili hamda ta'lim boshqaruvi bo'yicha mavjud ilmiy tadqiqotlar natijalariga asoslanadi. Tahlil qilinadigan manbalar qatoriga xalqaro va mintaqaviy ilmiy maqolalar, nazariy adabiyotlar hamda ta'lim menejmenti bo'yicha tadqiqotlar kiradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Sinergetik yondashuv maktab direktorlarini murakkab ta'lim tizimlarida kontekstni to'g'ri anglashga, uzoq muddatli strategiyalarni rejalashtirishga va o'zgaruvchan sharoitlarda samarali qarorlar qabul qilishga tayyorlaydi. Tizimli fikrlash maktab maqsadlari bilan resurslarni uzviy bog'lab turadi. Tizimli fikrlash va strategik boshqaruv o'rtasidagi bog'liqlik muhim ahamiyatga ega. Strategik boshqaruv samarali bo'lishi uchun tizimli fikrlash zarur. Bu ikki yondashuv bir-birini to'ldiradi.

Tizimli fikrlash – muammoni to'liq ko'radi, sabab–oqibatni tahlil qiladi va o'zaro bog'liqlikni tushuntiradi. Strategik boshqaruv esa yo'nalish beradi, maqsad belgilaydi hamda amalga oshirish mexanizmini yaratadi.

Agar maktab rahbariyati tizimli fikrlasa, strategik boshqaruv yanada samarali bo'ladi. Tizimli va strategik yondashuv qo'llanilgan maktablarda ta'lim sifati oshadi, o'qituvchilar motivatsiyasi kuchayadi, ota-onalar bilan hamkorlik yaxshilanadi, innovatsion loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshiriladi va raqobatbardosh bitiruvchilar tayyorlanadi. Strategik qarorlar ko'p omilli va murakkab bo'ladi. Tashqi va ichki omillar o'zaro ta'sir qiladi. Uzoq muddatli natijalar ko'pincha darhol ko'rinmaydi. Masalan, narxni tushirish strategiyasi qisqa muddatda savdoni oshirishi mumkin, biroq uzoq muddatda brend qadri pasayishi yoki foyda kamayishiga olib kelishi ehtimoli mavjud.

Sinergiya jamoa a'zolari o'rtasida ishonch va uzviy faol hamkorlikni shakllantirish orqali boshqaruv natijadorligini oshiradi. Direktor jamoani faollashtiruvchi lider sifatida pedagoglar, ota-onalar va jamiyat vakillari bilan samarali muloqot o'rnatadi.

Sinergetik yondashuv maktabda innovatsion madaniyatni shakllantiradi va rahbarni pedagogik yangiliklarni joriy etishda strategik muvofiqlashtiruvchi sifatida tayyorlaydi. Bu esa ta'lim jarayonlarining sifatini oshiradi va o'quvchilarning o'rganish natijalariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Sinergetik yondashuv maktab boshqaruvini quyidagicha yaxshilaydi:

- barqaror tashkiliy struktura – maktab faoliyati tizimli ravishda rejalashtiriladi;
- ochiq muloqot muhitini yaratish – jamoa a'zolari o'rtasida samarali muloqot yo'lga qo'yiladi;
- resurslarni integratsiyalash – moliyaviy, insoniy va pedagogik resurslar optimal darajada uyg'unlashtiriladi;
- innovatsion boshqaruv mexanizmlari – o'zgarishlarga moslashuvchan strategiyalar qo'llanadi.



Maktab direktorlarining boshqaruv ko'nikmalarini rivojlantirishda sinergetik yondashuv muhim ahamiyatga ega. U rahbarni murakkab tizimni tizimli ravishda boshqarishga, jamoaviy sinergiyani shakllantirishga va innovatsiyalarni samarali tatbiq etishga yo'naltiradi. Sinergetik yondashuv ta'lim tizimida liderlikning yangi sifatlarini rivojlantiradi hamda maktab boshqaruvida uzluksiz o'sish va moslashuvchanlikni ta'minlaydi.


Tizimli va integrativ boshqaruv modelini joriy etish, o'zini-o'zi rivojlantiruvchi boshqaruv mexanizmini yaratish, jamoaviy qaror qabul qilish tizimini rivojlantirish, raqamli boshqaruv kompetensiyasini oshirish, adaptiv va krizis boshqaruvi ko'nikmalarini rivojlantirish hamda innovatsion muhit yaratish mazkur yondashuvni samarali amalga oshirishning muhim yo'nalishlari hisoblanadi. Quyida tizimli va integrativ boshqaruv modelini joriy etish algoritmi mexanizmi keltiriladi.



1-rasm: Modelning ishlash algoritmi (Aylanma sinergetik sikl)

Tizimli va integrativ boshqaruv model algoritmi (1-rasm)da quyidagilarga e'tibor qaratiladi:

1. **Rejalashtirish** – strategik maqsadlarning aniqligi (aniq, o'lchab bo'ladigan, real), missiya va vizyonning jamoa tomonidan qabul qilinishi, KPI va natija indikatorlarini belgilash, resurslar (kadr, vaqt, moliya) tahlili hamda xavf (risk)larni oldindan baholashni o'z ichiga oladi.
2. **Integratsiya** – barcha yo'nalishlarning yagona maqsadga xizmat qilishi, vazifalar taqsimoti va delegatsiya, fanlararo hamkorlik, ichki kommunikatsiya samaradorligi hamda raqamli tizimlar bilan uyg'unlikni ta'minlashni talab etadi.
3. **Amalga oshirish** – rejaga muvofiq harakat qilish, mas'uliyat va ijro intizomi, jamoaviy hamkorlik, muammolarni tezkor hal qilish, motivatsiya va rag'batlantirishni o'z ichiga oladi.
4. **Monitoring** – KPI bajarilish darajasi, o'quv natijalari va sifat ko'rsatkichlari, xodimlar faoliyati tahlili, raqamli ma'lumotlardan foydalanish, ota-onalar va o'quvchilar fikrini tahlil qilishni nazarda tutadi.
5. **Refleksiya** – sabab-oqibat tahlili, jamoaviy muhokama, tajribani umumlashtirish, qiyoslash, innovatsion g'oyalar va kreativ loyihalarni ishlab chiqish, o'z-o'zini baholash hamda ichki xususiyatlarni o'rganish orqali ko'rsatkichlarga asoslangan mezonlarni ishlab chiqishni taqozo etadi. Bu jarayon qarorlar qabul qilishda natijalilikni ta'minlashga xizmat qiladi. Direktor o'zining boshqarish va rejalashtirish funksiyalari hamda boshqaruv qarorlarini tahlil qilmas ekan, tizimda sinergiya hosil bo'lmaydi.
6. **Takomillashtirish** – tuzatish choralari ishlab chiqish, strategiyani yangilash, innovatsion yondashuvlarni joriy etish, moslashuvchanlikni kuchaytirish va keyingi sikl uchun yangilangan reja tayyorlashni o'z ichiga oladi.



2-rasm: Sinergetik o'zaro bog'liqlikni sinergetika tamoyili orqali tahlil etamiz.

Sinergetik o'zaro bog'liqlikni sinergetika tamoyili orqali tahlil etamiz (1-sxema). Maktab tizimidagi barcha elementlar – direktor, pedagoglar, o'quvchilar, ota-onalar va tashqi hamkorlar – alohida ishlaganda muayyan natija beradi, biroq ularning o'zaro uyg'un va hamkorlikka asoslangan faoliyati natijasida kutilganidan yuqori,



integrativ natija yuzaga keladi. Ya'ni tizimning umumiy samaradorligi uning qismlari yig'indisidan ko'ra kattaroq bo'ladi. Sinergetika tamoyili elementlar o'zaro ta'siri natijasida yangi sifat darajasi yuzaga kelishini anglatadi. Direktor va pedagog hamkorligi jamoaviy liderlikni shakllantiradi, pedagog va o'quvchi o'zaro ta'siri yuqori akademik natijalarni ta'minlaydi, monitoring va refleksiya esa innovatsion yangilanish zaruratini yuzaga keltiradi. Bu tamoyil maktab boshqaruvida bir qator jihatlarida namoyon bo'ladi. Jumladan, o'zaro kuchaytirish – har bir subyektning harakati boshqalarning samaradorligini oshiradi. Masalan, direktor strategik yo'naltiradi, pedagog metodik jihatdan boyitadi, o'quvchi esa faol ishtirok etadi va natija oshadi.

O'zini-o'zi tashkil etish – tizim tashqi buyruqsiz ham ichki resurslar orqali rivojlanadi. Pedagoglar tashabbus ko'rsatadi, jamoa ichida innovatsion loyihalar yuzaga keladi, direktor esa katalizator rolini bajaradi. Qayta aloqa (feedback) – monitoring va refleksiya jarayoni tizimning rivojlanish mexanizmi hisoblanadi. Natijalar tahlil qilinadi, muammolar aniqlanadi va strategiya takomillashtiriladi.

Moslashuvchanlik va adaptivlik – murakkab tizim o'zgaruvchan muhitga moslashadi, yangi ta'lim talablariga, raqamli transformatsiyaga va ijtimoiy ehtiyojlarga javob beradi.

Nochiziqlik – tizimda kichik o'zgarish katta natijaga olib kelishi mumkin. Masalan, motivatsion muhitni yaxshilash yoki samarali dars kuzatuv ta'lim sifatini sezilarli darajada oshiradi. Sinergetik o'zaro bog'lanishlar maktab boshqaruvida ilmiy jihatdan quyidagilarni ta'minlaydi:

- maktabni murakkab, interaktiv tizim sifatida tahlil qilish;
- strategik, taktik va operativ jarayonlarni integratsiyalash;
- o'zini-o'zi rivojlantiruvchi va innovatsion tizim yaratish;
- qayta aloqa va monitoring orqali ma'lumotlarga asoslangan boshqaruvni qo'llash;
- nochiziqlik orqali yangi sifat va natijalarni yuzaga chiqarish;
- moslashuvchan va barqaror rivojlanishga erishishni ta'minlash.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, maktab direktorining boshqaruv ko'nikmalarini sinergetik yondashuv asosida shakllantirish ta'lim muassasasini oddiy ma'muriy tuzilmadan o'z-o'zini rivojlantiruvchi dinamik tizimga aylantirish imkonini beradi. Sinergetik boshqaruvda direktor faqat buyruq beruvchi emas, balki jamoadagi ichki imkoniyatlarni birlashtiruvchi va "rezonans" effektini yaratuvchi moderator vazifasini bajaradi. Strategik, liderlik va innovatsion ko'nikmalarning o'zaro integratsiyasi ushbu tamoyilning samarali ishlashini ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, sinergetik yondashuv direktorga murakkab va o'zgaruvchan ta'lim muhitida nafaqat barqarorlikni saqlash, balki tizimli rivojlanishning yangi bosqichiga chiqish strategiyasini taqdim etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Haken, H. (1983). Synergetics: An Introduction. Springer.
2. Karadzhova, P. (2024). Synergetics in education as a new educational paradigm. Tereni Journal.
3. Issabekova, A., Turgunbayeva, B., & Katenov, A. (2024). Synergetic approach platform in organising methodological activity at school. Physics Journal.
4. Senge, P. (1990). The Fifth Discipline: The Art and Practice of the Learning Organization. Doubleday.
5. Panina, S. V., et al. (2017). Synergetic approach to the learning process organization for future education managers' training. Revista ESPACIOS.
6. Shuldeshova, N. V. (2023). Synergetic approach in the educational environment of multilingualism. DOAJ.
7. Fullan, M. (2016). The New Meaning of Educational Change. Teachers College Press.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.